



UO'K: 635.61.632.9.

## POLIZ BIOTOPIDA POLIZ QO'NG'IZINING TARQALISHI VA ZARARI

Allanazarov Olimjon Yaxshiboyevich 

O'KHITI Surxondaryo mintaqaviy filiali katta ilmiy xodimi, q.x.f.f.d. (PhD)

e-mail: [allanazarov89@list.ru](mailto:allanazarov89@list.ru)

**Annotatsiya.** Maqolada poliz qo'ng'izining tarqalishi va zarari bo'yicha fikr yuritilgan, Surxondaryo viloyati sharoitida poliz ekinlari zararkunandasi bo'lgan poliz qo'ng'izi viloyatning janubiy tumanlarida keng tarqalgan bo'lib yoz davomida ertalab va kechqurinlari aktiv bo'lib barg, gul, mevalar bilan oziqlanib, qarshi kurash o'tkazilmagan dalalarda 80-90 % gacha zarar yetkazishi kuzatilgan

**Kalit so'zlar:** poliz, biotop, zararkunanda, poliz qo'ng'izi, lichinka, g'umbak, tuxum, gul, qovun, tarvuz, qovoq.

**Abstract.** The article discusses the spread and harmfulness of the melon beetle; it is noted that in the conditions of the Surkhondaryo region, the melon beetle, a pest of melon crops, is widespread in the southern districts of the region and is active in the morning and evening during summer, feeding on leaves, flowers, and fruits, causing up to 80-90% damage in fields where control has not been conducted.

**Keywords:** Melon, biotope, pest, melon beetle, larva, pupa, egg, flower, melon, watermelon, pumpkin.

**Аннотация.** В статье рассматривается распространение и вред бахчевого жука, отмечается, что бахчевой жук, являющийся вредителем бахчевых культур в условиях Сурхандарьинской области, широко распространен в южных районах области и активно питается листьями, цветами и плодами в течение лета утром и вечером, нанося ущерб до 80-90% на полях, где не проводилась борьба с ним.

**Ключевые слова:** бахчевых культур, биотоп, вредитель, бахчевой жук, личинка, куколка, яйцо, цветок, дыня, арбуз, тыква.

### KIRISH

Mamlakatimizda oziq-ovqat xafsizligini taminlash doimo ustuvor masalalardan biri bo'lib keladi. Bu borada qishloq xo'jaligi alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa to'g'ridan-to'g'ri istimol qilinadigan sabzavot-poliz ekinlaridan sifatli va mol hosil olish maqsadga yetishda muhim hisoblanadi. Bu borada olim va mutaxassislar tomonidan doimiy izlanishlar olib borilib, serhosil navlar yaratish





## AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

bilan bir qatorda ekinlarni atrof-muhit va insonlar uchun kam xafli bo'lgan usullarni ishlab chiqish va joriy etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Surxondaryo viloyatining qulay tuproq-iqlim sharoiti poliz ekinlaridan mo'ljali hosil yetishtirish imkoniyatini beradi. Ob-havoning issiq kunlari ko'pligi qovun, bodring, qovoq va tarvuzni erta ekib (qisman plyonka ostiga) erta xosil yetishtirish imkoniyatini beradi. Biz o'tkazgan tadqiqotlarimizning asosiy maqsadi, bu ekinlarni zararlashi mumkin bo'lgan hashoratlarni aniqlab biologik hamda boshqa samarali kurash o'tkazish tizimini belgilashdan iboratdir [6;].

Viloyatimizda poliz ekinlari qadimdan ekilib kelayotgan tur hisoblanib, o'simliklar sistematikasida oshqovoqlar (*Cucurbitaceae*) oilasiga mansub bo'lgan qovun (*Cucumis melo* L), tarvuz (*Citullus lanatus* L), oshqovoq (*Cucurbita pepo* L) turlari ekiladi. Poliz ekinlarining hohlagan turini oziq-ovqat sifatida inson va boshqa organizmlar keng foydalanib, tarkibidagi kimyoviy moddalarning ko'pchiligi organizmga tez so'rilib, dorivor xususiyatga egadir. Ammo keyingi yillarda zararkunandalar tufayli yetishtirilayotgan hosilning bir qismi yo'qotilmoqda. Poliz ekinlarining jiddiy zararkunandalaridan biri poliz qo'ng'izi bo'lib, so'ngi yillarda yuqori va sifatli hosil olishga jiddiy zarar yetkazmoqda.

O'zbekistonda koksinalidlarning fitofag turlaridan poliz qo'ng'izi (*Epilachna chrysomelina*) poliz o'simliklari bilan oziqlanadigan yagona tur hisoblanadi. Tadqiqotchi mualliflarning ma'lumotiga ko'ra bu tur Kavkazorti o'lkalarida; O'rta Osiyo Respublikalaridan Turkamanistonda, Tojikistonda va O'zbekistonning janubiyda keng tarqalgan [1;2;3;7].

Poliz qo'ng'izi va lichinkalari poliz ekinlaridan qovun, tarvuz, bodring, handalak va qovoqning barg, poya, gul hamda mevalari bilan oziqlanib jiddiy zarar yetkazadi. Ayniqsa qo'ng'iz va lichinkalar qovunning vegetativ va generativ organlarini jiddiy zararlaydi, hatto qovun, handalakning yetilgan mevalarini teshib kirib chuqurchalar hosil qiladi [1;2;7]. Poliz ko'ng'izining tarqalishi, ko'payishi, zarari va unga qarshi kurash choralari o'tgan asrning 60-80-yillarida Azarboyjon, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston respublikalarida tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Ammo keyingi 40-50 yildan buyon Respublikamizda bu zararkunanda hasharot o'rganilmagan.

### MATERIALLAR VA USULLAR

Surxondaryo viloyati poliz maydonlarida 2025-2026 yillar mobaynida olib borildi. Poliz ko'ng'izini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar kuzatish, tajriba, taqqoslash usullarida, Tadqiqotlarda Fenologik va faunistik kuzatish ishlari V.P.Palliy [4] hamda A.Qulmamatovning [5] uslubiy qo'llanmalari yordamida bajarildi.

### NATIJALAR VA MUNOZARA

Surxondaryo viloyatining janubiy tumanlarida Termiz, Angor, Sherobod, Muzrabot, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on tumanlarida Poliz qo'ng'izi keng tarqalgan. Zararkunanda qovun, tarvuz, va qovoq ekinlariga 70-80% gacha zarar yetkazadi.





## AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

Poliz qo'ng'izining zarari erta bahorda qo'ng'izlar paydo bo'lgandan boshlanadi. Qo'g'izlarning qishlov joylaridan chiqishi ancha cho'zilib, aprel oyining o'rtalaridan may oyining o'rtalarigacha kuzatiladi. Qishlab chiqqan qo'ng'izlar poliz ekinlarining barigi bilan ikki uch kun oziqlangach ular juftlashib bir kundan keyin barglarning orqa qismiga to'p-to'p qilib tuxum qo'ya boshlaydi. Tuxumlardan lichinkalar besh- olti kun o'tgach chiqadi va darhol yosh barglarning orqa qismida to'p to'p bo'lib bargi epidermisini kemirib oziqlanishga kirishadi. Lichinkalar ikkinchi yoshdan, uchinchi yoshdan esa ommaviy ravishda barglarga tarqala boshlaydi.

Termiz tumanidagi Ayritom, Navruz, Istiqilol, Gulbahor, Jarqo'rg'on tumanidagi Halqobod, Zartepa, Qumqo'rg'on tumanidagi Yangiqishloq, Yangier, Xo'jamulki, Sherobod tumanidagi U.Turopov, Talashqon xududlarida poliz qo'ng'izi keng tarqalgan bo'lib, kuzatishlarimiz davomida kichkina yoshdagi lichinkalar poliz ekinlari barglari bilan katta yoshdagi lichinkalar va qo'ng'izlar poliz ekinlarining bargidan tashqari, guli, mevasi bilan oziqlanib hatto mevani teshib kirganligi tufayli mevalar butunlay yaroqsiz holga kelganligi qayd etildi (1-rasm).



**1-rasm. Poliz qo'ng'izi va lichinkalarining zarari (org.).**

Termiz tumani "Ayritom" mahallasida aholi tomorqalarida monitoring o'tkazilganda bir tup ertachi qovunda o'rtacha lichinkalar 7-8 tani, qo'ng'izlar 3-4 tani, tarvuzda lichinkalar 3-4 tani, qo'ng'izlar 2-3 tani, qovoqda esa lichinkalar va qo'g'izlar 1-2 donani, Qumqo'rg'on tumaning yangiqishloq mahallasidagi aholi tomorqalarida esa bir tup qovunda lichinkalar 4-5 tani, qo'ng'izlar 2-3 tani, tarvuzda lichinkalar 2-3 tani, qo'ng'izlar 1-2 tani, qovoqda esa zararkunanda aniqlanmadi. Bundan ko'rinib turibdiki poliz qo'ng'izining sevib is'temol qiluvchi o'simligi ertangi qovunning barcha navlari hisoblanadi. Keyingi o'rinda esa tarvuz o'simligi turadi. Poliz qo'ng'izi qovun va tarvuz bo'lmagan dalalardagina oshqovoq bilan oziqlanadi.

Surxondaryo viloyati sharoitida tadqiqot o'tkazilgan yillari poliz qo'ng'izi ertalab va kechqurun havo harorati 25<sup>0</sup>-30<sup>0</sup>S bo'lgan holatda faol bo'lib, kun



## AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

o'rtasida esa ya'ni havo harorati 35<sup>0</sup>Sdan yuqori ko'tarilganda harakati va oziqlanishi susayib ular barglar ostiga soya joylarga ba'zan esa tuproqning yuza qatlamidagi pana joylarga kirib ketadi. Bahorda va kuzda ertalab kechqurun salqin bo'lib kunlik havo harorati 20-25<sup>0</sup>S atrofida bo'lganda qo'ng'izlar kun o'rtasida faol oziqlanadi. Surxondaryo viloyati sharoitida mavsumda Poliz qo'ng'izining 3-4 avlodi rivojlanadi. Ammo ba'zi yillari to'rtinchi avlodi tugallanmasdan nobud bo'ladi.

### XULOSA

Surxondaryo viloyati sharoitida poliz ekinlari zararkunandasi bo'lgan poliz qo'ng'izi viloyatning janubiy tumanlarida keng tarqalgan bshlib yoz davomida ertalab va kechqurini aktiv bo'lib barg, gul, mevalar bilan oziqlanib, qarshi kurash o'tkazilmagan dalalarda 80-90 % gacha zarar yetkazishi kuzatiladi.

### ADABIYOTLAR

1. Алланазаров О.Я., Хайтмуратов А.Ф. Полиз қўнғизининг полиз мевасидаги зарари “Агро кимё ҳимоя ва ўсимликлар карантини” – Махсус сон (2). 2022. - Б.8-9.

2. Алланазаров О.Я. – *Epilachna chrysomelina* Fabr. - Полиз зараркунандаси, “Агро кимё ҳимоя ва ўсимликлар карантини” – № 3-сон. 2022. - Б.19-21.

3. Атаева М.А. Материалы по биологии и экологии бахчевой коровки в Таджикистане. Извест АН тажд.ССР, отд. биологич.наука, 1972, (146)

4. Палий В.Ф. Методика фенологических и фаунистических исследований насекомых. -Фрунзе. -1966.- 238 с.

5. Қулмаматов А. Умуртқасизлар зоологиясидан ўқув дала амалиёти // Ўқув қўлланма. –Тошкент: Ўқитувчи. - 2004. - 200 б.

6. Р.Ғайимов., Ш.Т.Хўжаев Полиз экинларида эпиляхнанинг зарари “Тупроқ унумдорлигини ошириш, ғўза ва ғўза мажмуидаги экинларни парваришда манба тежовчи агротехнологияларни амалиётга жорий этишнинг аҳамияти” мавзусидаги Халқаро илмий-амалий анжумани маърузалари асосидаги мақолалар тўплами 2012, 445-448б.

7. Хайтмуратов А.Ф., Алланазаров О.Я. *Epilachna chrysomelina* Фабр. - Полиз экинларининг хавfli зараркунандаси. ”Хоразм Маъмун академиси ахборатномаси”. – Хива, 2021. –№ 11. – Б.143-146.